

XURSHID DAVRON SHE'RIYATIDA LIRIK QAHRAMON TALQINI**Pirmatova Shohista Mahmudovna***Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi matbuot kotibi*

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada Xurshid Davron she'riyatidagi lirik qahramonning badiiy talqini o'rganiladi. Lirik qahramon shoirning ichki "men"i bilan uyg'unligi, uning Vatan, tabiat, inson va tarixiy mavzularga munosabati tahlil qilinadi. Tadqiqotda lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, falsafiy qarashlari va ularni ifodalashda shoir qo'llagan badiiy vositalar o'rganiladi. Maqola Xurshid Davron ijodini chuqur anglashga ko'maklashib, lirik qahramon talqini bo'yicha ilmiy qarashlarni kengaytirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *lirik qahramon, ruhiy kechinma, xalq ruhiyati, ramziy tasvir.*

KIRISH

O'zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Xurshid Davron she'riyati milliy va umuminsoniy qadriyatlarni teran ifodalashi, falsafiy mushohadalarga boyligi bilan o'ziga xos o'rin egallaydi. Shoir she'riyatida lirik qahramon obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Lirik qahramon – bu shoirning ichki “men”i, u orqali insonning ruhiy olami, ichki kechinmalari va hayotiy falsafasi ifoda etiladi. Adabiyotshunoslikda lirik qahramon muammosi doimo dolzarb bo'lib kelgan, chunki u ijodkorning ichki dunyosini chuqur anglashga, asardagi badiiy-estetik maqsadni tushunishga imkon beradi. Xurshid Davron she'riyatidagi lirik qahramonning o'ziga xosligi shundaki, u shaxsiy kechinmalar orqali umumxalq dardini, milliy o'zlikni va ruhiy iztirobni aks ettiradi.

Xurshid Davronning "Samarqandda oydin tun", "Derazamning raxidan qorni", "Bo'ldi, yetar, termulmang oyga..." kabi she'rlarida lirik qahramonning ichki olami o'quvchini o'ziga rom etadi. Ushbu lirik “men” hayot, Vatan, tabiat, tarixiy voqelik va insoniy qadriyatlar haqida o'z fikr-mulohazalarini ifoda etadi. Lirik qahramonning ruhiy kechinmalari ko'pincha Vatan dardi, inson iztiroblari, tabiat va tarixiy obrazlar orqali o'z aksini topadi. Bu esa she'rlarni nafaqat milliy ruh, balki umuminsoniy ma'no va estetik ko'rinish kasb etadigan badiiy asarlarga aylantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xurshid Davron she'riyati, xususan, undagi lirik qahramon talqini bo'yicha bir qator adabiyotshunos olimlarning ilmiy izlanishlari mavjud. Ushbu mavzuda qalam tebratgan olimlar orasida O.Sharafiddinov, N.Afoqova, U.Normatov, Y.Solijonov, A.Hayitmetov, J.Jumaboyeva kabi adabiyotshunoslar alohida o'rin tutadi. Ularning ilmiy izlanishlarida Xurshid Davron she'riyatidagi badiiy timsollar, ramziy tasvirlar, lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, shoirning poetik mahorati haqida muhim fikrlar bildirilgan. Ushbu tadqiqotlar shoirning ijodiy olamini chuqur o'rganishga, uning lirik qahramoni orqali jamiyat va insoniyat muammolariga

nazar tashlashga yordam beradi. O.Sharafiddinov o'zining ilmiy maqolalarida Xurshid Davron ijodida xalq ruhiyati, milliy o'zlik va ma'naviy uyg'oqlikni aks ettiruvchi badiiy timsollarning ahamiyatiga e'tibor qaratgan. Olim lirik qahramonning ichki olami, shoirning "men"i va xalqning "men"i o'rtasidagi uyg'unlikni ko'rsatib beradi. Unga ko'ra, Xurshid Davronning lirik qahramoni shunchaki shoirning ichki kechinmalarini ifodalovchi timsol emas, balki xalqning umumiy dardi, orzu-umidlari va qiyinchiliklarini o'zida mujassamlashtirgan obrazdir. Shoir she'riyatidagi ramzlar va majoziy timsollar, xususan, Vatan, ona, tabiat, tun, oy kabi obrazlar lirik qahramonning ruhiy holatini yanada chuqurroq ochib beradi. N.Afoqovaning ilmiy tadqiqotlarida Xurshid Davron she'riyati bilan bog'liq poetik izlanishlar alohida o'rin egallaydi. Olimning tadqiqotlarida shoirning badiiy tafakkuri, tasvir vositalari va estetik yondashuvlari atroflicha o'rganiladi. Xususan, N.Afoqova Xurshid Davron she'rlarida lirik qahramonning shaxsiy va ijtimoiy o'rni haqida qimmatli xulosalar beradi. Olimning fikricha, shoirning lirik qahramoni — bu ichki iztirob, dard va o'z-o'zini tahlil qilishning timsolidir. Bu qahramon Vatan dardini o'z yuragidan o'tkazadi va xalqning iztirobini o'z dardidek qabul qiladi. Bu yondashuv Xurshid Davron she'riyatini o'quvchilar uchun yanada ta'sirchan qiladi. Adabiyotshunos U.Normatov Xurshid Davron she'riyati haqida yozar ekan, uning lirik qahramoni orqali tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash jarayonlarini tadqiq etadi. Olimning ta'kidlashicha, Xurshid Davron o'z she'rlarida tarixiy voqea va hodisalarni ramziy obrazlar orqali ifodalashda mohirlik ko'rsatadi. "Samarqandda oydin tun" she'rida shoirning o'z milliy o'zligini anglash yo'lida olib borgan izlanishlari, shuningdek, xalqning o'z-o'zini anglash jarayoni badiiy talqin etiladi. Ushbu she'rda lirik qahramon shoirning ichki kechinmalaridan ko'ra xalqning umumiy dardi, ijtimoiy haqiqatlar ifodasi sifatida gavdalanadi. R.Xodjayeva va Y.Solijonovning ilmiy maqolalarida Xurshid Davron she'riyatida qo'llangan poetik tasvir vositalarining ahamiyati ta'kidlanadi. Ularning ta'kidlashicha, Xurshid Davronning lirik qahramoni Vatan dardi, millat taqdiri va inson iztiroblarini ramziy obrazlar orqali ifodalashda boshqa shoirlardan farqlanadi. Lirik qahramon ko'pincha "men" shaklida namoyon bo'lib, ba'zan xalqning "men"iga aylanadi. Xurshid Davronning "Derazamning raxidan qorni..." she'rida kutilmaganda deraza raxidagi gul va qor tasvirlari orqali lirik qahramonning ruhiy holati yoritiladi. Bu usul adabiyotshunoslikda ichki monolog va ramziy tasvirning birlashgan ko'rinishi sifatida baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tahliliy-tanqidiy metod. Ushbu metod yordamida Xurshid Davron she'riyatidagi lirik qahramonning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Shoirning "Samarqandda oydin tun", "Derazamning raxidan qorni", "Bo'ldi, yetar, termulmang oyga..." kabi she'rlari matn tahlili asosida o'rganilib, ulardagi lirik qahramonning ruhiy kechinmalari va estetik xususiyatlari aniqlanadi. She'rlar tahlilida poetik obrazlar, ramzlar, majozlar va badiiy detal vositalarining lirik qahramonni ifodalashdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi. Kontekstual metod. Lirik qahramonning

ijtimoiy, madaniy va falsafiy kontekstdagi o'рни aniqlanadi. Xurshid Davron she'riyatidagi lirik qahramonning o'ziga xosligini tushunish uchun shoir yashagan davr ijtimoiy-madaniy muhit, mustaqillik davri o'zbek she'riyatidagi umumiy tendensiyalar hisobga olinadi. Shoirning lirik qahramoni orqali jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar, inson ruhiyatidagi ziddiyatlar, tarixiy xotira va milliy o'zlikni ifodalash usullari tahlil qilinadi. Qiyosiy metod. Tadqiqotda Xurshid Davron she'riyatidagi lirik qahramon tasviri boshqa o'zbek shoirlarining lirik qahramonlari bilan taqqoslanadi. Shu orqali Xurshid Davron she'riyatidagi lirik qahramonning o'ziga xosligi aniqlanadi. Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Rauf Parfi singari shoirlarning lirik qahramonlari bilan Xurshid Davronning qahramonini qiyoslab, ulardagi poetik obrazlarning farqli va o'xshash jihatlari ko'rsatiladi. Bu usul Xurshid Davron ijodining boshqa zamondoshlar she'riyati bilan aloqasini aniqlash imkonini beradi.

Natijalar va muhokama. Xurshid Davron she'rlarida lirik qahramon shoirning ichki "men"i bilan uyg'un holda gavdalanadi. Bu qahramonning kechinmalari, iztiroblari va mushohadalari xalq dardi, milliy o'zlik va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'langan. Shoirning "Samarqandda oydin tun" she'rida lirik qahramon milliy o'zlik va tarixiy xotira haqida falsafiy fikr yuritisa, "Bo'ldi, yetar, termulmang oyga..." she'rida hayot va tabiatning o'zaro uyg'unligi haqidagi mulohazalar bilan o'quvchini chuqur mushohadaga undaydi. Xurshid Davron she'riyatida lirik qahramonning ichki ruhiy kechinmalari bilan tashqi dunyo o'rtasidagi ziddiyatlar keng yoritilgan. Shoirning "Derazamning raxidan qorni..." she'rida tabiatning go'zalligi lirik qahramonning tinimsiz ichki izlanishlari va iztiroblariga qarama-qarshi qo'yilgan. Bunda qor va gul obrazlari orqali ichki va tashqi olam o'rtasidagi ziddiyat ramziy ifoda etiladi. Xurshid Davron she'riyatida lirik qahramonning Vatan dardi va milliy g'urur bilan sug'orilganligi alohida ajralib turadi. Shoirning "Moviy rangli osmonga boqdim" kabi she'rlarida lirik qahramon o'zini Vatan bilan bir butun sifatida his qiladi. Bu qahramonning Vatanni insonning onasi, erki va himoyachisi sifatida qabul qilishi poetik ramzlar orqali ifodalanadi. Shoir Vatan timsolini shaxsiy hissiyotlari bilan uyg'unlashtirgan holda, uni muqaddas sajdagoh sifatida tasvirlaydi. Xurshid Davron she'riyatida lirik qahramonni ifodalashda ramz va timsollar alohida o'rin tutadi. Shoirning "Bo'ldi, yetar, termulmang oyga..." she'rida oy va maysa timsollari lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini ifoda etadi. Oy obrazining uzoqligi va go'zalligi qahramonning orzulari, maysa esa hayotning o'zgaruvchanligini ramziy ifodalaydi. Bu timsollar orqali lirik qahramonning ruhiy dunyosi chuqurroq ochib beriladi. Xurshid Davron she'rlarida lirik qahramon ko'pincha shoirning ichki "men"i sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, ba'zi she'rlarda bu qahramon shoirning o'zidan ajralib chiqib, mustaqil badiiy obrazga aylanadi. Masalan, "Samarqandda oydin tun" she'rida lirik qahramon xalqning umuminsoniy orzu va intilishlarini ifodalaydi. Bu esa shoirning "men"i va lirik qahramon "men"ining o'zaro bog'liqligini, lekin ba'zi hollarda ular orasidagi farqlarni ko'rsatadi.

Xulosa. Xurshid Davron she'riyatidagi lirik qahramon shoirning ichki "men"i bilan uyg'un holda tasvirlangan bo'lib, uning ruhiy kechinmalari, falsafiy mushohadalari va ma'naviy izlanishlari she'riyatning badiiy tizimida markaziy o'rin egallaydi. Bu qahramon shunchaki shoirning ichki dunyosi emas, balki millatning ichki ruhiy kechinmalarini ham o'zida mujassam etgan badiiy timsoldir. Lirik qahramonning ichki iztiroblari, uning Vatan, tabiat, tarix va inson haqidagi fikrlari milliy o'zlikni anglash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Xurshid Davron she'riyatida lirik qahramonning Vatanga bo'lgan muhabbati, uning tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglash borasidagi mushohadalari alohida o'rin egallaydi. Shoirning "Samarqandda oydin tun", "Moviy rangli osmonga boqdim" kabi she'rlarida lirik qahramon Vatan bilan ruhiy bog'liqlikda tasvirlangan. Vatan, ona, tun, oy, daraxt, daryo va boshqa tabiat timsollari orqali qahramonning ichki iztiroblari, ruhiy holati va falsafiy qarashlari yoritiladi. Ushbu ramziy timsollar orqali lirik qahramonning ichki dunyosi ochib beriladi va uning ijtimoiy-psixologik mohiyati ifodalanadi. Lirik qahramonning ichki kechinmalari, hayot haqidagi falsafiy mulohazalari va ruhiy iztiroblari Xurshid Davron she'riyatining muhim jihatlaridan biridir. "Bo'ldi, yetar, termulmang oyga...", "Derazamning raxidan qorni..." kabi she'rlarda ichki ziddiyatlar kuchli ifoda etilgan. Lirik qahramonning ichki dunyosi bilan tashqi voqelik o'rtasidagi ziddiyat orqali shoir hayot, o'lim, haqiqat va adolat singari abadiy qadriyatlar haqidagi falsafiy fikrlarini ilgari suradi. Bunda ramz va timsollar asosiy poetik vosita sifatida xizmat qiladi. Xurshid Davron she'riyatida lirik qahramonning kechinmalarini ifodalashda ramz va timsollar muhim o'rin egallaydi. Oy, tun, qor, yulduz, barg, daraxt, maysa, qush kabi obrazlar she'rlarning estetik jozibasini oshiradi. Ushbu tasviriy vositalar orqali lirik qahramonning falsafiy fikrlari va ichki ruhiy kechinmalari o'quvchiga yetkaziladi. Bu timsollar Xurshid Davronning boshqa zamondosh shoirlardan farqli o'laroq o'ziga xos poetik olamini shakllantirishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI;

1. Afoqova N. Jadid she'riyati poetikasi .- T: Fan. 2005
2. Sharafiddinov O. Zamon. Qalb. Poeziya. -T: 1962.
3. Sharafiddinov.O. Lirika haqida mushohadalar .- T: 1956
4. Sharafiddinov.O. Poema va qahramon . -T:1958
5. G'afurov.I. Lirikaning yuragi. -T: 1982
6. Mirzayev M. Uyg'oq tuyg'ular // "Sharq yulduzi",1984, 5-son